



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2024 - yil 29 - mart

142-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Meliorativ ekspidetsiyasi tomonidan amalda foydalanib kelayotgan Mirishkor tumani hududida joylashgan “Sechanko‘l” va “Achinko‘l” ko‘llarining foydalanishida bo‘lgan (egallab turgan) va sohil bo‘yi mintaqa maydonidagi yer uchastkalarini doimiy foydalanish huquqi asosida ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni ijrosiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining 2024-yil 26-yanvardagi №01-10/52-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining ijobiy xulosasi, hududiy arxitektura shaharsozlik kengashining kelishuvi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Meliorativ ekspidetsiyasi tomonidan amalda foydalanib kelayotgan Mirishkor tumani hududida joylashgan “Sechanko‘l” va “Achinko‘l” ko‘llarining foydalanishida bo‘lgan (egallab turgan)

jami 10 650,0 gektar (shundan 9450,0 gektar ko‘llarning suv bilan qoplangan maydoni, 1200,0 gektar sohil bo‘yi mintaqa) maydonlaridan iborat qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydonlari ilovaga muvofiq doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasiga (G‘.Hamroyev) O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga qarashli “Sechanko‘l” va “Achinko‘l” ko‘llarining foydalanishida bo‘lgan yer maydonlarini belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta‘minlab, yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish topshirilsin.

4. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi va Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi birgalikda “Sechanko‘l” va “Achinko‘l” ko‘llarining foydalanishida bo‘lgan yer maydonlaridan samarali va maqsadli foydalanilishini monitoring qilib borsin.

5. Ajratilgan yer maydonlaridan belgilangan maqsadlarda foydalanilmaganda mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko‘ra bekor qilinishi belgilab qo‘yilsin.

6. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining www.qashqadaryo.uz rasmiy veb-saytida e‘lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyat
hokimining
2024-yil 29-martdagi
142-4-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi Amu-Qashqadaryo
Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Meliorativ
ekspeditsiyasi tasarrufidagi Mirishkor tumani hududida joylashgan
"Sechanko'l" va "Achinko'l" ko'llar yer maydonlarini xatlovdan
o'tkazish natijasi to'g'risida
MA'LUMOT**

T/r	Obyekt nomi	Hudud nomi	Ko'llar foydalanishidagi yer maydoni, ga	Shundan	
				Suv bilan qoplangan maydoni	Sohil bo'yi mintaqa maydoni
1	2	3	5	6	7
1	"Sechanko'l" ko'li	Mirishkor tumani	7800,0	7000,0	800,0
2	"Achinko'l" ko'li	Mirishkor tumani	2850,0	2450,0	400,0
Jami:			10650,0	9450,0	1200,0